

YAPON TILI TASNIFI VA ALIFBOSI

Fayzullayeva Zeboxon Xayrulla qizi

SamDCHTI talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yapon tili, tarixi va alifbosi, hozirgi kungacha qanday bosqichlardan o'tgani va hozirgi kundagi ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Xitoy yozuvi, kanji, hiragana, katakana, fonetik tuzilish, Edo davri, Meiji davri.*

KIRISH

Yapon tili Yaponiyaning asosiy davlat tili bo'lib, u dunyoning eng qadimiy va murakkab tillaridan biri sifatida tanilgan. Yaponchada 日本語 – Nihongo. Bu til hech qanday tillar guruhiga kirmaydigan til hisoblanadi va bu tilda 100 milliondan ortiq kishi so'zlashadi. Yapon tili va uning tarixi asosan Xitoydan kirib kelgan yozuvlar bilan bog'liq. Yaponiyada ilk yozuvlar miloddan avvalgi V asrda Xitoydan o'zlashtirila boshlangan. O'sha davrda yapon tili birmuncha aralashgan tildan iborat bo'lgan va bu davrda dastlab Yaponiyada Xitoydan kirib kelgan yozuvlar – kanji ishlatilgan. Keyinchalik yapon tili o'zining yozuv va grammatika tizimida yanada rivojlanib, adabiyotda ham keng foydalanila boshlagan hamda yangi janrlar, "Genji Monogatari" kabi mashhur asarlar paydo bo'lgan. Edo davrida yapon tili ko'proq adabiy va ilmiy ishlarda ishlatiladigan tildan xalq tili bo'lishga yaqinlashdi. Edo davri (1603-1868) davomida Yaponiyaning har tomonlama rivojlanishi davom etdi. Bu davrda yapon tili o'zini yanada mustahkamladi, biroq Xitoy tilidan bir qancha so'zlar qo'shildi. Yapon tilidagi so'zlar va iboralar ko'plab xalq tabiatini va kundalik hayotini aks ettirdi. So'ng Meiji davri (1868-1912) Yaponiyaning G'arbga ochilish davri bo'ldi. Bu davrda yapon tili ko'plab g'arbiy so'zlar va ilmiy atamalarni o'zlashtirdi. Yapon tili yuqori darajadagi adabiyot, ilm-fan, siyosat va texnologiya sohalarida ishlatildi va rasmiy til sifatida rivojlanib boraverdi. Bugungi kunda yapon tili o'zining o'ziga xos grammatikasi, sintaksisi, fonetikasini saqlab kelmoqda. Tilning yozuv tizimi uzoq yillar davomida takomillashib kelayotgan kanji, hiragana va katakana aralashmasidan iborat. Xalqaro aloqalar va texnologiyaning rivojlanishi bilan yapon tiliga inglizcha va boshqa xorijiy so'zlar ko'proq kirib keldi. Masalan, "Taxi" - タクシー, "Internet" - インターネット, "Coffee" - コーヒー.

KANJI

Kanji - ideografik yozuv tizimi bo'lib, har bir belgi biror ma'no yoki tushunchani ifodalaydi. Kanji yapon yozuvidagi eng qadimgi va eng muhim qismdan biri bo'lib, Xitoydan olingan piktografik (rasm) va ideografik (g'oya) belgilardan tashkil topgan. Kanji yozuvi Yaponiyaga miloddan avvalgi V-VI asrlarda kirib kelgan va yapon tili yozuv tizimining rivojlanishida katta rol o'ynagan. Kanji, aslida, Xitoy yozuvi bo'lib, piktografik belgilarni ifodalash orqali ma'no yaratadi. Dastlab, kanji yozuvi Xitoy imperiyasining ta'siri ostida Yaponiyada diniy matnlar va Xitoy falsafasi bilan bog'liq yozuvlar uchun ishlatilgan. Yapon

tilida kanji Xitoydan keltirilgan rasmlil belgilarning literal o'zgartirilgan shakli sifatida paydo bo'lgan. Ular yapon tiliga moslashtirilib, yaponcha so'zlarni yozish va o'qishda ishlatila boshlandi. Kanji Yaponiyaga kirganidan so'ng, uni yapon tiliga moslashtirish jarayoni boshlandi. Kanji belgilarining ba'zilar yapon tilining fonetik tizimiga mos kelmaydi, shuning uchun ularni o'qish va yozishda yangi usullar ishlab chiqildi. Kanji harflari ba'zan ma'no, ba'zan esa tovushni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, daraxt — kanjisi "木", o'qilishi "ki", o'rmon — kanjisi "森", o'qilishi "mori"; yomg'ir — kanjisi "雨", o'qilishi "ame", bulut — kanjisi "雲", o'qilishi "kumo".

Meiji davri (1868-1912) Yaponiyaning g'arbga ochilishi va modernizatsiya jarayoni sodir bo'lgandan so'ng, kanji tizimida katta o'zgarishlar yuz berdi. Yapon hukumati rasmiy yozuvni soddalashtirish va xalqni yozuvni o'rganish uchun qulay qilish maqsadida Joyo kanji deb nomlangan rasmiy kanji ro'yxatini yaratdi. Bu ro'yxat 1946-yilda tasdiqlandi va 1,945 ta kanji belgisidan iborat edi. Bu kanji belgilari Yaponiyada kundalik hayotda va ta'limda ishlatiladigan asosiy kanji belgilarini o'z ichiga oladi.

HIRAGANA ALIFBOSI

Hiragana — yapon tilining fonetik yozuv tizimlaridan biri bo'lib, u Yaponiyadagi qadimiy yozuv tarixining muhim qismidir. Hiragana, asosan, yaponcha so'zlarni yozish uchun ishlatiladi va kanji (Xitoy yozuvi) bilan birga yapon yozuv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Hiragana **VIII-IX** asrlarda Heian davrida (794-1185) paydo bo'ldi. Bu davrda Yaponiyada yozuv tizimining soddalashtirilishi va fonetik yozuvni yaratish ehtiyoji yuzaga keldi. Bundan oldin yaponlar Xitoydan kirib kelgan kanji (漢字) yozuvi orqali yozishgan, lekin kanji yozuvi yapon tilining fonetik tizimiga mos kelmasdi, chunki kanji harflari ko'pincha ma'no (ideografik) belgilar sifatida ishlatilardi. Yapon tilining grammatikasi va tovush tizimini kanji yordamida to'liq ifodalash va shakli bir xil, manosi turlicha bo'lgan kanjilar qo'llanilishida qiyinchiliklar va tushunmovchiliklar bo'lgan. Hiragana "onna-de" - "ayol qo'li" deb atalgan, chunki avvaliga uni asosan ayollar kanji belgilarining soddalashtirilgan shakllari sifatida yaratgan va ishlatgan, chunki erkaklar hali ham kanji yozuv tizimidan foydalanishda davom etgan. Hiragana ko'pincha yaponcha so'zlar, grammatik qo'shimchalar va so'zlar uchun ishlatiladi. U soddalashtirilgan va oqilona yozilgan shakllarni ifodalaydi, bu uni kundalik foydalanishda qulay qiladi. Hiragana va katakana orasidagi farq ularning shaklida va ishlatilishida. Hiragana yumshoqroq va aylanma shakllarga ega bo'lsa, katakana to'g'ri va keskin shakllarga ega. Hiragana alifbosi 46 ta asosiy harfdan iborat bo'lib, bu harflar yapon tilining asosiy tovushlarini ifodalaydi. Ular, odatda, gojūon (五十音) deb ataladigan jadval asosida tartiblanadi. Bu jadvalda har bir harfga mos keluvchi tovushlar ko'rsatiladi va har bir tovush uchun tegishli belgilar bor. Masalan, か - ka, き - ki, く - ku, け - ke, こ - ko.

KATAKANA alifbosi

Katakana — yapon tilining ikkinchi asosiy fonetik yozuv tizimi bo'lib, u hiragana tizimi bilan birga yapon yozuvining ajralmas qismidir. Katakana, asosan, xorijiy so'zlar, ilmiy atamalar, onomatopoeik so'zlar (tovushlarga o'xshash so'zlar), maxsus nomlar va ta'riflar

uchun ishlatiladi. Katakana hiragana bilan bir vaqtda, ya'ni Heian davrida (794-1185) shakllana boshladi. Hiragana va katakana — ikkita fonetik tizim bo'lib, har biri o'ziga xos foydalanishga ega. Katakana kanji belgilarining qisqartirilgan shakllaridan tashkil topgan. Bu yozuv dastlab faqat diniy va ilmiy yozuvlar uchun ishlatilgan. So'ng Xitoydan kirgan so'zlar, buddizm va boshqa tashqi madaniyatlar bilan bog'liq so'zlar uchun ishlatilgan. Edo davri (1603-1868) va Meiji davrida (1868-1912) Yaponiyaning g'arbga ochilishi va ilm-fan, texnologiya va savdo aloqalarining rivojlanishi bilan katakana va uning roli yanada kuchaydi. G'arb madaniyatidan va texnologiyalaridan kirgan yangi so'zlar uchun katakana keng ishlatilgan. Masalan, inglizcha "computer" so'zi katakanada コンピュータ deb yoziladi. Fransiya davlati ham Yaponiya bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygandan so'ng yapon tili lug'atiga fransuzcha so'zlar ham qo'shila boshladi. Masalan, "Café" katakanada "カフェ", yaponlar bu so'zni kafe yoki kafe-bar ma'nosida ishlatadilar; "Hotel" katakanada "ホテル" - Fransuzcha "otel" so'zi yapon tilida ham xuddi shu ma'noda ishlatiladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, yapon yozuvi tarixi murakkab va ko'p bosqichlardan iborat bo'lib, u Xitoy yozuv tizimlaridan boshlanib, yapon madaniyati va tilining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishga harakat qiladi. Kanji, hiragana va katakana tizimlarining birlashuvi yapon yozuvini noyob va o'ziga xos qiladi, bu esa uni dunyo tillari orasida alohida o'ringa qo'yadi. Yapon tilini o'rganishda o'rganuvchilar bir qancha qiyinchiliklar bilan yuzlashadilar, ularni yengishda tilni chuqurroq o'rganishga bo'lgan intilish, muntazam amaliyot va sabr-toqat talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Япония: Страна и люди. Япония.: 講談社インターナショナル株式会社, 2005.
2. 英語で話す日本. Япония.: 講談社インターナショナル株式会社, 2000.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005

INTERNET SAYTLAR:

1. www.nihonwosiru.siru.jp
2. <http://web-japan.org>
3. uz.m.wikipedia.org